



№6/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

FILOLOG-TALABALARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Hasanov Sharobidin

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Maqolada filolog-talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar tizimi ilmiy asoslangan. An'anaviy (ma'ruza-muloqot, reproduktiv-evristik, illyustrativ-ekspozitsion, direktiv savol-javob) metodlarning didaktik chegaralari aniqlangan va ularga muqobil sifatida mualliflik texnologiyalari ("Matn-Muallif-Men", "Qiyosiy-kontrastiv matn tahlili") hamda xalqaro metodikalar (Harkness muhokamasi, De Bono olti fikrlash shlyapasi) tavsiflangan. Taklif etilayotgan modelning amaliy samaradorligi E.Xeminguoyning "Chol va dengiz" qissasi hamda Navoiyning "Lison ut-tayr", "Kalila va Dimna" va Dj.Oruellning "Molxona" asarlaridagi hayvonlar allegoriyasini qiyosiy tahlil qilish misolida ko'rsatib berilgan. Tadqiqotda tahliliy, qiyosiy-tipologik, pedagogik kuzatuv va tajriba-sinov metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar:

analitik tafakkur, innovatsion pedagogik texnologiya, filolog-talaba, "Matn-Muallif-Men" texnologiyasi, qiyosiy-kontrastiv tahlil, Harkness muhokamasi, allegoriya, kasbiy kompetensiya.

Аннотация.

В статье научно обоснована система инновационных педагогических технологий, направленных на развитие аналитического мышления студентов-филологов. Выявлены дидактические ограничения традиционных методов (лекция-беседа, репродуктивно-эвристический, иллюстративно-экспозиционный, директивный опрос) и в качестве альтернативы охарактеризованы авторские технологии («Текст-Автор-Я», «Сравнительно-контрастивный анализ текста»), а также международные методики (обсуждение по методу Харкнесс, шесть шляп мышления де Бонно). Практическая эффективность предложенной модели показана на примере сопоставительного анализа повести Э.Хемингуэя «Старик и море» и аллегории животных в произведениях Навои «Язык птиц», «Калила и Димна» и Дж.Оруэлла «Скотный двор». В исследовании использованы аналитический, сравнительно-типологический, педагогическое наблюдение и опытно-экспериментальный методы.

Ключевые слова:

аналитическое мышление, инновационная педагогическая технология, студент-филолог, технология «Текст-Автор-Я», сравнительно-контрастивный анализ, обсуждение по методу Харкнесс, аллегория, профессиональная компетентность.

Abstract.

The article provides a scientific rationale for a system of innovative pedagogical technologies aimed at developing analytical thinking in philology students. The didactic limitations of traditional methods (lecture-dialogue, reproductive-heuristic, illustrative-expository, directive question-answer) are identified, and as an alternative the author's own technologies ("Text-Author-Me", "Comparative-Contrastive Text Analysis") as well as international methods (Harkness discussion, De Bono's six thinking hats) are described. The practical effectiveness of the proposed model is demonstrated through a comparative analysis of E.Hemingway's "The Old Man and the Sea" and the animal allegory in Navoi's "The Language of the Birds", "Kalila and Dimna", and G.Orwell's "Animal Farm". The study employs analytical, comparative-typological, pedagogical observation, and experimental methods.

Keywords:

analytical thinking, innovative pedagogical technology, philology student, "Text-Author-Me" technology, comparative-contrastive analysis, Harkness discussion, allegory, professional competence.

Kirish. Zamonaviy adabiy ta'lim paradigmasida analitik tafakkurni rivojlantirish pedagogika fanining shunchaki nazariy yo'nalishi emas, balki strategik-amaliy dolzarblikka ega markaziy muammosi hisoblanadi. Bugungi global ta'lim konsepsiyasi talabani tayyor bilimni reproduktiv o'zlashtiruvchi subyekt emas, balki mustaqil tadqiqotchi, kritik mushohada sohibi va yangi intellektual mahsulot yaratuvchi sifatida talqin etadi. Bu yondashuv oliy ta'lim pedagogi oldiga talabaga tafakkur metodologiyasini – tahlil, sintez, deduksiya, induksiya – o'rgatishdek mas'uliyatli vazifani qo'yadi. Oliy filologik ta'lim tizimida bu jarayonning o'ziga xos

xususiyati shundaki, badiiy matn bilan ishlash talabada nafaqat lingvistik va adabiyotshunoslik bilimlarini integratsiya qiladi, balki psixologik deshifrovka (inson ruhiyatini badiiy obraz orqali anglash), ijtimoiy tahlil (munosabatlar arxitektonikasini matnosti mazmuni asosida tadqiq etish) va aksiologik idrok (umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qayta baholash) kabi kasbiy ko'nikmalarni ham shakllantiradi.

Biz tomondan o'tkazilgan tizimli kuzatishlar an'anaviy metodlarning quyidagi didaktik chegaralarini aniqlashga imkon berdi: ma'ruza-muloqot metodi talabaning mustaqil izlanish tashabbusini cheklaydi; reproduktiv-evristik yondashuv xotirani mustahkamlasa-da, shaxsiy interpretatsiya imkoniyatini minimallashtiradi; illyustrativ-ekspozitsion metod badiiy obrazlarni tayyor qoliplar orqali tushuntirib, induktiv xulosa chiqarish ko'nikmasining shakllanishiga to'sqinlik qiladi; direktiv savol-javob tizimi esa talaba tafakkurini qat'iy "andoza" ichida tutib, matnning yashirin qatlamlarini ochishga bo'lgan qiziqishni susaytiradi. An'anaviy (ekstensiv) ta'lim modelida didaktik diqqat markazida tayyor bilimlar majmuini uzatish tursa, innovatsion (intensiv) paradigmada asosiy urg'u analitik tafakkur, mustaqil tahlil va sintez layoqatini shakllantirishga yo'naltiriladi; bunda talaba "passiv resipient" maqomidan chiqib, faol tadqiqotchi va matn interpretatori darajasiga ko'tariladi, pedagog esa "axborot manbayi" emas, balki fasilitator va kognitiv yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Ushbu chegaralarni bartaraf etish maqsadida tadqiqotimizda mualliflik hamda jahon tajribasida sinalgan xalqaro texnologiyalar tizimi ishlab chiqildi va sinovdan o'tkazildi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot Andijon davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti talabalari ishtirokida tizimli pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov va qiyosiy-tipologik tahlil metodlari asosida olib borildi. Ishlab chiqilgan texnologiyalar tizimi ikki guruhga bo'linadi.

Mazkur tizim mualliflik texnologiyasi hamda jahonning yetakchi ta'lim muassasalari (Harvard, Yale, Oxford) tajribasida sinalgan zamonaviy xalqaro metodikalarini o'z ichiga oladi. Bu texnologiyalar tizimi filolog talabaning nafaqat bilim darajasini, balki uning kasbiy faoliyatdagi diagnostik va interpretatsion ko'nikmalarini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Mualliflik texnologiyalari. "Matn-Muallif-Men" (MMM) texnologiyasi matnni tekstual, intensional va refleksiv uch qatlamda o'qishni talab etadi hamda talabani reproduktiv qabul qilishdan kreativ tahlilga ko'taradi [1]. "Qiyosiy-kontrastiv matn tahlili" (QKMT) texnologiyasi turli davr, janr va madaniyatga oid asarlarni parallel qiyoslash orqali komparativ tafakkurni shakllantiradi [1]. Bulardan tashqari "Tahliliy esse zinapoyasi" (kuzatish → tahlil → talqin → baholash → kasbiy xulosa bosqichlari) va "Obraz evolyusiyasi xaritasi" (qahramon rivojini vizual kuzatib borish) texnologiyalari ham qo'llanildi. "Tahliliy esse zinapoyasi" texnologiyasi talabani badiiy asardan ma'naviy xulosalar chiqarishga izchil, bosqichma-bosqich yetaklaydi: dastlab kuzatilgan detal qayd etiladi, so'ng u tahlil qilinadi, keyin talqin etiladi, baholanadi va nihoyat kasbiy-pedagogik xulosaga aylantiriladi. "Obraz evolyusiyasi xaritasi" esa qahramon shaxsiyatining voqeadan voqeaga rivojlanishini vizual xarita shaklida kuzatib borish imkonini beradi, bu esa talabada analitik va gnoseologik kompetensiyalarni bir vaqtning o'zida rivojlantiradi.

Xalqaro metodikalar. Edvard Harknessning "Yumaloq stol muhokamasi" talabalarni o'qituvchi ishtirokisiz, dalillarga asoslangan ochiq akademik muloqotga jalb etadi [2]. Edvard de Bononing "Olti fikrlash shlyapasi" badiiy matnni fakt (oq), his-tuyg'u (qizil), tanqid (qora), ijobiylik (sariq), ijod (yashil) va umumlantirish (ko'k) nuqtayi nazaridan izchil ko'rib chiqishga

yo'naltiradi [3]. Muammoga asoslangan o'qitish (PBL) esa talabani real kasbiy vaziyat asosida guruhli tahlilga, gipoteza ilgari surishga va yechim taqdim etishga undaydi.

Texnologiyalarning amaliy samaradorligini sinash uchun bir necha didaktik material bazasidan foydalanildi: E.Xeminguoyning "Chol va dengiz" qissasidan chol va uning ichki nutqiga oid lirik-psixologik parcha [4], hayvonlar allegoriyasi asosiga qurilgan uch buyuk asar – Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni [5], "Kalila va Dimna" [6] va Dj.Oruellning "Molxona" qissasi [7], shuningdek Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni [5] va Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani [10].

Talabalarning analitik-baholovchi ko'nikmalarini rivojlantirishda SWOT-tahlil texnologiyasidan ham foydalanildi: bu metod badiiy qahramonning ichki quvvati (S), zaif tomonlari (W), rivojlanish imkoniyatlari (O) va unga qarshi turuvchi tashqi tahdidlarni (T) tizimli aniqlashga xizmat qiladi. Muammoli-analitik tafakkurni rivojlantirish uchun esa "FSMU" texnologiyasi (Fikringizni bayon eting – Sabab ko'rsating – Misol keltiring – Umumlashtiring) qo'llanildi [1]. Bundan tashqari, tadqiqotda talabalarni real kasbiy vaziyatlar asosida mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatuvchi modellashtirish metodi ham qo'llanildi: talabalarga pedagogik amaliyotda uchraydigan muammoli vaziyatlar taqdim etilib, ular ushbu vaziyatlarni tahlil qilish va oqilona yechim topish orqali kasbiy-analitik tafakkurini mustahkamladilar.

Qo'llanilgan texnologiyalar tizimini to'rt mezon bo'yicha tasniflash mumkin: tafakkur operatsiyasiga ko'ra - tahliliy (SWOT, Venn diagrammasi), sintetik (konsept-xarita), baholovchi (FSMU, debat) va yaratuvchi (loyihaviy o'qitish) turlarga; o'zaro munosabat shakliga ko'ra – yakka, juftlik, kichik guruh va umumguruh faoliyatiga; vositaga ko'ra – an'anaviy va raqamli-vizual vositalarga; Blum taksonomiyasidagi tafakkur darajasiga ko'ra esa quyi (bilish), o'rta (tahlil) va yuqori (baholash, yaratish) darajalarga bo'linadi. Bunda muayyan texnologiyalar o'ziga xos analitik vazifalarni bajaradi: masalan, "O'tkan kunlar" romani yuzasidan ishlab chiqilgan olti pog'onali savollar tizimi Blum taksonomiyasi asosida talabani mantiqiy xulosalar sari yetaklaydi; semantik xaritalash "Alpomish" dostonidagi "vatanparvarlik" kabi murakkab kategoriyalarni tizimli anglashga yordam beradi. Ushbu tasnif o'qituvchiga har bir mavzu uchun eng mos texnologiyani maqsadli tanlash imkonini beradi.

Muhokama. "MMM" texnologiyasi "Chol va dengiz"dan olingan parcha – cholning yolg'izlikda o'z-o'zi bilan ovoz chiqarib gaplashishi tasvirlangan lavha – misolida sinovdan o'tkazildi. Birinchi qatlam (matn nima deydi?) darajasida talabalar tashqi syujetni cholning uzoq muddat baliq tutolmagani, bola ketgandan so'ng yolg'iz qolgani va dengizchilar orasida ortiqcha gapirmaslik odat ekanini, aniqladilar. Ikkinchi qatlam (muallif nima deydi?) darajasida talabalar Xeminguoyning inson qadrini natija bilan emas, kurash jarayoni bilan o'lchash g'oyasini kashf etdilar: Santyago obrazi orqali muallif inson ruhining sinmasligini ta'kidlaydi. Uchinchi qatlam (men nimani his qilaman?) darajasida talabalarda empatiya, identifikatsiya va refleksiya kabi psixologik mexanizmlar faollashib, ular "atrofimizdagi odamlarning yolg'izligiga ko'nikib qolmayapmizmi?" degan ijtimoiy savolni mustaqil shakllantirdilar. Bu – texnologiyaning pedagogik kulminatsion nuqtasi bo'lib, talabani passiv o'quvchidan faol talqinchiga aylantirganini ko'rsatdi.

"QKMT" texnologiyasi uch asardagi hayvon obrazining kontrastiv tahlili orqali sinovdan o'tkazildi. Tahlil natijasida bir xil zoomorfik obraz: qush yoki hayvon timsoli, har bir asarda mutlaqo farqli semantik yuk ko'tarishi aniqlandi: "Lison ut-tayr"da har bir qush inson botinining allegorik timsoli bo'lib (bulbul – ishq tutquni, tovus – kibr ramzi), asarning bosh g'oyasi irfoniy-tasavvufiy xarakter kasb etadi; "Kalila va Dimna"da hayvon obrazi ijtimoiy-

siyosiy allegoriya sifatida namoyon bo'lib, Dimna – manfaatparast ayyorlik, Kalila esa haqiqatni aytsa-da eshitilmaydigan ziyoli fojiasini ifodalaydi; "Molxona"da esa cho'chqalar obrazi orqali totalitar hokimiyat mexanizmi va mafkuraviy manipulyatsiya fosh etiladi. Talabalar shu tariqa bir xil obrazning turli madaniy-tarixiy kontekstda tubdan farqli ma'no qatlamlarini kashf etish orqali obrazning tashqi shaklidan uning ichki, madaniy-falsafiy vazifasini anglash kompetensiyasini shakllantirdilar. Tahlil yakunida talabalar muhim umumlashma xulosaga keldilar: uchala asarda ham qo'zg'olon yoki kurash motivi mavjud bo'lsa-da, uning yo'nalishi (ichki nafsga qarshi, hokimiyat uchun, ozodlik uchun) va yakuni mutlaqo boshqacha. Bu kuzatish talabalarda bashariyat tarixining takrorlanish mantig'ini mustaqil kashf etish imkonini berdi.

"QKMT" texnologiyasining uchinchi tahlil bosqichida talabalar timsollarning fikr yuritish uquvi va muloqot xulqini ham qiyosladilar. "Lison ut-tayr"da Hudhudning muloqoti – refleksiv dialog: u qushlarni majburlamay, donishona savollar orqali ularni o'zlikni anglashga yetaklaydi. "Kalila va Dimna"da esa muloqot manipulyativ xarakterga ega; Dimna ishonchni asta-sekin qozonib, keyin shubha urug'ini sepadi, Kalila esa to'g'ri fikrlasa-da, uni hech kim eshitmaydi. "Molxona"da fikr yuritish siyosatdona va shiorlidir – Napoleon buyuradi, Skviler esa yolg'onni haqiqatga aylantiruvchi til vositalaridan foydalanadi. Ushbu kontrastiv kuzatish talabalarga muhim pedagogik xulosani: fikr yuritish uquvi va muloqot xulqi ikki alohida malaka ekanini, ulardan faqat birining mavjudligi esa fojiaga olib kelishi mumkinligini mustaqil anglash imkonini berdi.

"Harkness muhokamasi" jarayonida talabalar "Santyago mag'lub bo'ldimi yoki g'alaba qildimi?" kabi savol atrofida o'qituvchi ishtirokisiz, dalillarga tayangan holda bahslashdilar. Bir talaba Santyagoning tashqi jihatdan mag'lub bo'lgani, biroq ruhan yengilmagan insonday saqlanib qolgani haqida fikr bildirsa, boshqasi haqiqiy g'alaba tushunchasi muallif tomonidan atayin kitobxon hukmiga qoldirilganini ta'kidladi; bu esa ularda kommunikativ va refleksiv kompetensiyani mustahkamladi.

"De Bono texnologiyasi" ham xuddi shu parcha misolida sinovdan o'tkazildi: oq shlyapa bosqichida talabalar aniq faktlarni (chol uzoq muddat baliq tutolmagani, yolg'iz qolgani) ajratib ko'rsatishdi; qizil shlyapa bosqichida cholning ichki iztirobiga hamdardlik tuyg'usini ifodalashdi; qora shlyapa bosqichida bu holatni ijtimoiy izolyatsiyaning xavfli belgisi sifatida tanqid qilishdi; sariq shlyapa bosqichida esa aksincha, buni taslim bo'lmaslik va ma'naviy chidam ramzi sifatida baholashdi; yashil shlyapa bosqichida muqobil talqinlar (masalan, chol o'zi bilan emas, dengiz bilan "gaplashayotgani") taklif etishdi; ko'k shlyapa bosqichida esa barcha fikrlarni umumlashtirib, yolg'izlik mavzusi insonning ichki ruhiy kurashi va o'zligini saqlab qolish jarayoni ekani haqida yakuniy xulosaga kelishdi. Bu texnologiya bir xil badiiy detalning olti xil intellektual prizma orqali ko'rib chiqilishi talabaning fikriy moslashuvchanligini sezilarli darajada oshirganini ko'rsatdi.

"SWOT-tahlil" texnologiyasi Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod obrazi misolida sinovdan o'tkazildi. Talabalar Farhodning kuchli tomonlari sifatida uning keng bilimi, turli hunarlarga egaligi, pokiza qalbi va xalqparvarligini; zaif tomonlari sifatida hissiyotga beriluvchanligi va ayyorlikka ishonuvchanligini; imkoniyatlari sifatida komillikka erishish potensialini; tashqi tahdidlar sifatida esa Xusravning nopok raqobati va taqdirning fojiali burilishini aniqladilar. Bu tahlil talabalarga dostonidagi fojining qahramon zaifligidan emas, balki uning buyukligi bilan yovuz dunyo o'rtasidagi to'qnashuvdan kelib chiqishini mustaqil xulosa qilish imkonini berdi.

"FSMU" texnologiyasi Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi [10] Zebi taqdiri misolida qo'llanildi: talabalar avval shaxsiy fikrini bayon etdilar (Zebi taqdiri - individual emas, ijtimoiy-tarixiy determinizm mahsuli), so'ng sababini (XX asr boshi Turkistonida ayol huquqining institutsional cheklanganligi) va misolini (Zebining Akbaraliga to'rtinchi xotin sifatida uzatilishi) keltirdilar, yakunda esa umumlashma xulosaga - jamiyat tafakkuri yangilanmas ekan, shaxsiy ozodlik konsepsiyasi amalga oshmasligi haqidagi xulosaga keldilar. Bunday izchil mantiqiy zanjir talabani asarni reproduktiv idrok etishdan ijodiy-rekonstruktiv tahlilga olib chiqdi.

"Modellashtirish" metodi doirasida talabalarga pedagogik amaliyotdan olingan muammoli vaziyat taqdim etildi: yangi ishga qabul qilingan yosh o'qituvchi jamoadagi ba'zi hamkasblarining dars yuklamasi kamayishi tufayli ularning nohush munosabatiga duch keladi va ishdan bo'shashga qaror qiladi [1]. Talabalar ushbu vaziyatni tahlil qilib, quyidagi savollar asosida mustaqil yechim izladilar: yosh mutaxassisning faoliyat boshlanishiga bunday munosabat qanchalik asosli; qanday pedagogik-psixologik strategiya orqali jamoada haqiqiy obro' qozonish mumkin; qaror qabul qilishda shoshilmaslik nima uchun muhim. Ko'pchilik talabalar ishdan bo'shash o'rniga sabr va sifatli faoliyat orqali obro' qozonish strategiyasini tanladilar, bu esa ularda muammoli vaziyatlarni preventiv baholash va oqilona yechim topish ko'nikmasini mustahkamladi. Xuddi shunday, adabiyot darsida o'quvchining o'qituvchidan she'rni yoddan bilishini talab qilishi bilan bog'liq boshqa bir modellashtirilgan vaziyat talabalarda o'qituvchining kasbiy halolligi va pedagogik obro'si o'rtasidagi bog'liqlikni mustaqil tahlil qilish imkonini berdi.

Shuningdek, vizual-kognitiv texnologiyalar (mental xarita, konsept-xarita, Venn diagrammasi) badiiy asarning murakkab sabab-oqibat munosabatlarini ichki ierarxiya yoki vizual zanjir tarzida ifodalashga xizmat qilib, talabada bilimlarni tizimli bog'lash - tafakkurning eng yuqori, sintetik darajasidagi ko'nikmasini rivojlantirdi.

Xulosa. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, mualliflik ("MMM", "QKMT") va xalqaro ("Harkness", "De Bono", "SWOT", "FSMU") texnologiyalarning uyg'unlikda qo'llanilishi filolog-talabani badiiy matnning oddiy iste'molchisidan uning faol tahlilchisi va mustaqil talqinchisiga aylantiradi. Bunday texnologik integratsiya badiiy asar tahlilini talaba uchun abstrakt jarayondan aniq algoritmlashgan intellektual faoliyatga aylantiradi hamda bo'lajak adabiyot o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalarini yuqori darajadagi analitik ko'nikmalar bilan boyitadi. Xususan, "MMM" texnologiyasi matnni uch qatlamli - tekstual, intensional va reflektiv - darajada idrok etishni, "QKMT" esa turli madaniy-tarixiy kontekstdagi asarlarni qiyoslash orqali komparativ tafakkurni shakllantiradi; "SWOT" va "FSMU" texnologiyalari esa talabaning xulosalarini mantiqiy va dalilli tarzda asoslash ko'nikmasini, modellashtirish metodi esa real kasbiy vaziyatlarda mustaqil va oqilona qaror qabul qilish layoqatini mustahkamlaydi. Bu, o'z navbatida, bo'lajak filologning zamonaviy ta'lim muhitidagi raqobatbardoshligini ta'minlovchi strategik omil bo'lib xizmat qiladi va mazkur texnologiyalar tizimini boshqa filologik fanlar (tilshunoslik, adabiyot tarixi) o'qitish amaliyotiga ham tatbiq etish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Pedagogning kognitiv fasilitator sifatida namoyon bo'lishi hamda baholash tizimining reflektiv-analitik xarakter kasb etishi talabada nafaqat kasbiy mahoratni, balki mustaqil fikrlash madaniyatini ham shakllantirishni ta'minlaydi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu texnologiyalar tizimini raqamli-vizual vositalar (aqliy xarita, virtual devor) bilan boyitish va turli filologik fanlar kesimida uning samaradorligini kengroq tajriba-sinovdan o'tkazish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Shuningdek, texnologiyalarning bakalavriat ta'lim yo'nalishida

kurslar kesimida – 1-kursda genetik tahlil va nazariy metodlarni o'zlashtirishdan tortib, 4-kursda prognostik tahlil va mustaqil interpretatsiya strategiyalarini ishlab chiqishgacha izchil va bosqichma-bosqich joriy etilishi filolog-talabaning kasbiy tafakkurini yaxlit, uzluksiz tizim sifatida shakllantirishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov, Sh. (2020). *Adabiy ta'lim jarayonida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish* [PhD dissertatsiyasi]. Namangan.
2. Phillips Exeter Academy. (n.d.). *Harkness*. <https://exeter.edu/academics/harkness/>
3. De Bono, E. (1985). *Six thinking hats*. Little, Brown and Company.
4. Xeminguey, E. (2017). *Chol va dengiz*. Yangi asr avlodi.
5. Navoiy, A. (1991). *Mukammal asarlar to'plami: Xamsa* (20 jildlik). Toshkent.
6. Ibn al-Muqaffa. (1985). *Kalila va Dimna* (Sh. Shomuhamedov, Tarj.). G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
7. Oruell, J. (2021). *Molxona: Xayoliy antiutopik asar* (4-nashr). Toshkent.
8. Yusupova, Sh. (2005). *Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning ilmiy-metodik asoslari* [Pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasi]. Toshkent.
9. Hasanov, Sh. (2023). *O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi*. Hayot nashri-2020.
10. Cho'lpon, A. (2021). *Kecha va kunduz*. G'afur G'ulom.

Нишанов Хусан Мойдинжанович

ИЗУЧЕНИЕ МИЦЕЛЛООБРАЗУЮЩИХ СИСТЕМ МЕТОДОМ АКУСТИЧЕСКОЙ СПЕКТРОСКОПИИ.....	156	158
---	-----	-----

Norbo'tayeva Sarvinoz Ismatillayevna

MA'NAVYI-MA'RIFIY FAOLIYAT ASOSIDA ALOHIDA EHTIYOJLI TALABALAR IJTIMOYIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATION PEDAGOGIK MEKANIZMLARI	159	168
--	-----	-----

Atajonov Muxiddin Odiljonovich

TiO ₂ FOTOELEKTR QATLAMI VA Bi ₂ Te ₃ /Sb ₂ Te ₃ TERMoeLEKTR MODULLARINI INTEGRATSIYALASH ASOSIDA GIBRID QUYOSH ENERGIYASI O'ZGARTIRGICHINING TOK, KUCHLANISH VA QUUVAT XARAKTERISTIKALARINI TADQIQ ETISH.....	169	180
---	-----	-----

Hasanov Sharobidin

FILOLOG-TALABALARDA ANALITIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI	181	186
---	-----	-----

Raxmatullayeva Gulnoza Mavlanjonovna

TALABA-YOSHLARDA IJTIMOYIY-MA'NAVYI ODOBNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVYI MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI	187	190
--	-----	-----

Amanov Akmal Aripjonovich

MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASI: MAZMUNI, TARKIBIY TUZILISHI VA ASOSIY KOMPONENTLARI	191	194
---	-----	-----

Xolmirzayeva Dilaferuz Fattayevna

TALABALARNING EPISTEMOLOGIK FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI VA XORIJIY TAJRIBALAR	195	204
---	-----	-----

